



TIBBIYOTNOMA

TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI NASHRI

№ 1 2024 YIL 29 YANVAR

VATANGA SADOQAT – ENG OLIY BURCH!

Bugungi tahlikali zamonda Prezidentimiz, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh qo'mondoni Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan sohada amalga oshirilayotgan islohotlar milliy armiyamizning jangovar shayligi va harbiy salohiyatini oshirib, Yangi O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda muhim omil bo'lmoqda.



Muqaddas ona tuprog'imizni ko'z qorachig'idek asrash, qo'riqlab kelayotgan osuda, obod hayotimiz bunyodkorlari Vatani himoyachilarining o'rni beqiyos. Men ham bolaligimda harbiylarning shijoatini ko'rib dilimda harbiy sohaga bo'lgan qiziqish uyg'ongan.

2023-yili Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot institutining 4-kurs talabasi edim. O'sha vaqtda institutimizga Qurolli Kuchlar harbiy tibbiyot akademiyasi ma'sul vakillari bilan uchrashuv bo'lib o'tdi. Tadbir davomida bizga akademiya haqida ma'lumotlar berilib, qabul boshlangani haqidagi ma'lumotlarni aytishdi. Bu esa men uchun yaxshi imkoniyat edi. Fursatdan foydalanib, men ariza topshirdim. Oila a'zolarim ham bu tanlovimdan xursand bo'lib, qo'llab turishdi. Men o'z yo'nalishim – tibbiy profilaktika bo'yicha imtihonda qatnashdim. Buvijonim va ota-onamning duolari, ustozlarimning bergan ilmlari sababli imtihondan o'tganim to'g'risidagi xabarni eshitdim.

Yurtimizda barcha kasblar mas'uliyatli, lekin bu kasblarning ichida faqat ikki kasb egalari xizmat faoliyatini boshlashdan oldin qasamyod qabul qilishadi. Bulardan biri shifokorlik bo'lsa, ikkinchisi harbiylik sohasi. Menga shu ikki qasamyodni qabul qilish, shu ikki kasb egasi bo'lish, ikki kasb libosini kiyish baxti nasib etdi.

Akademiya kelganimda yaratilgan shart-sharoitlar bilan tanishdik. Ta'kidlash joiz akademiya zamonaviy talablarga to'la javob beradi. Bizga o'z kasbini yetuk mutaxassislari, o'qituvchi-professorlar dars o'tishmoqda. O'quv binodagi simulyatsiya markazi zamonaviy, eng so'nggi tibbiyot jihozlari bilan ta'minlangan. Bu biz yoshlarga

olgan nazariy bilimlarimizni amaliyotda qo'llash uchun katta imkoniyatdir.

Shu o'rinda muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi bilan yoshlar uchun barcha shart-sharoitlar yaratilayotganini aytish joiz. Bu esa biz yoshlarga bo'lgan ishonchining yaqqol na'munasidir.

Umumharbiy fanlarni o'qib-o'rganishimiz, turli xil mashqlarni bajarishimiz davomida jamoada birlik, jipslik, matonat va o'zaro hurmat bo'lishi har qanday to'siqni yengib o'tishga asos bo'lishini angladim.

Samarqand viloyatida bo'lib o'tgan xalqaro tibbiyot olimpiadasida Harbiy Tibbiyot Akademiyasi nomidan qatnashish juda katta mas'uliyat talab etishini ichimdan his etdim. To'g'risini aytсам bu olimpiadada qatnashish uchun o'zimda bo'lgan ishonchim yetmadi, bunday katta mas'uliyatni yelkamga olishdan biroz qo'rqdim. Olimpiadada bir guruh kursantlarimiz qatnashib, faxrli o'rinlar va nominatsiyalarni qo'lga kiritishdi. Umumjamo'a hisobida 2-o'rinni egallashdi. Bu akademiya uchun katta yutuq edi. Shunda men olimpiadada qatnashmaganimdan biroz afsuslandim. Biroz vaqt o'tgach fakultetimiz rahbari, tibbiy xizmat polkovnigi Komil Eshquvatov Toshkent tibbiyot akademiyasida bo'lib o'tadigan "Tibbiyot mohirlari" 3-xalqaro olimpiadasida qatnashishimni aytdilar. Menga akademiya rahbari ishonch bildirayotganidan xursand bo'ldim. Tayyorlanish uchun vaqt juda oz bo'lishiga qaramay akademiya va fakultet rahbarlarimizning bildirgan ishonchi meni ruhlantirardi.

Ustozlarim – tibbiy xizmat podpolkovnigi

Jamshid Qutliyev, tibbiy xizmat mayori O'ktam Davronov, Abbas Rustamov, Akram Xushvaqto'v, Muzaffar Maxsumov, Soli Yarashyevlar menga katta yordam berishdi.

Toshkent tibbiyot akademiyasi ham zamonaviy qulayliklarga ega, innovatsion texnologiyalarga boy va ilmiy jihatdan ko'pgina davlat oliygohlari bilan bellasha oladigan salohiyatga ega oliygohligiga amin bo'ldim. 8 ta mutaxassislik bo'yicha bellashilgan olimpiadada yurtimizning barcha oliygohlari va chet el oliygohlari vakillari qatnashdi. Men olimpiadada tibbiy profilaktika yo'nalishi bo'yicha qatnashib, faxrli 2-o'rinni oldim. Umumjamo'a hisobida 4 nafar 2-o'rin, 3 nafar 3-o'rin 1 nafar kursantimiz turli nominatsiyalar bo'yicha g'olib bo'lishdi. Taqdirlash jarayoni ko'tarinki kayfiyatda o'tkazildi. Har birimiz taqdirlanish uchun chiqqanimizda harbiy kiyimimiz, harbiycha shaxdam qadam tashlashimizdan faxrlandik. Taqdirlanish marosimidan so'ng "O'zbekiston Respublikasiga sadoqat bilan xizmat qilaman" deyishimiz zaldagi barcha talabalarimiz bizga hafas bilan qarayotganini shundoq his qildik. Men bundan juda katta faxr tuyg'usini tuydim. Biz umumjamo'a hisobida barcha oliygohlar ichida faxrli 3-o'rinni oldik. Akademiya rahbarimiz safda bizga alohida tashakkur bildirib, bizdek kursantlar bilan faxrlanishini aytdilar.


Yakunlangan 2023-yil men uchun mana shunday omadli yil bo'ldi.

Shaxrillo XOLOV,
Harbiy tibbiyot akademiyasi harbiy
vachlar tayyorlash fakulteti 501-guruh
kursanti

Hikmat



Vatan himoyasi muqaddas burch.



Hikmat

Alisher Navoiy tavalludining 583-yilligi



Butun turk dunyosi Alisher Navoiyni «shams ul-millat» — millat quyoshi, deb hamma davrlarda e'zoz bilan tilga oladi.

Butun umrini turkiy til mavqeyini ko'tarish, turkiy adabiyot imkoniyatlarini dunyoga tan oldirish, turkiy davlatchilik asoslarini mustahkamlashga, jamiyatda haqiqat va adolat mezonlarini qaror toptirishga bag'ishlagan bobokalonimiz bu e'tirofga to'la-to'kis munosib va haqlidir.

Alisher Navoiy 1441-yil 9-fevralda Xuroson o'lkasining poytaxti Hirotida tug'ildi. Zamondoshlari uni «Nizomiddin Mir Alisher» deb ulug'laganlar. «Nizomiddin» — din nizomi deganidir. Navoiyning otasi G'iyosiddin Muhammad temuriylarga yaqin amaldorlardan bo'lib, o'z davrining obro'li va ma'rifatli kishilaridan sanalgan. Adabiyotshunos Davlatshoh Samarqandiyning yozishicha, u o'g'li Alisherning tarbiyasiga, kelajakda fazilatli odam bo'lib yetishmogi uchun astoydil harakat qilgan. Onasi Kobul amirzodalaridan Shayx Abusaid Changning qizi bo'lgan. Kichik maktab yoshida fors shoiri Fariddin Attorning kattalar ham tushunishi qiyin bo'lgan «Mantiq ut-tayr» dostonini fors tilida o'qib ham uqib yod olgani uning yoshlik iste'dodining muhim qirralaridan edi.

She'rga mehr Alisherni ijodga undadi. U 7-8 yoshlaridan she'r yoza boshladi. O'zbekcha she'rlariga «Navoiy», forscha she'rlariga «Foniy» taxallusini qo'ydi.

O'smirlik davrlarida Alisher o'qishda va yozishda tinim bilmas, she'r mutolaasidan charchamas edi. «Muhokamat ul-lug'atayn» asarida o'zining yoshlik chog'ida mashhur o'zbek va fors shoirlari nazmidan 50 ming bayt (100 ming misra) she'rni yod bilganini so'zlaydi. Bolalik vaqtlaridayoq o'z davrining Amir Shohiy, Lutfiy, Kamol Turbatiy kabi shoirlari bilan yaqindan aloqada bo'ldi. Otasi vafotidan so'ng taniqli ilm va adabiyot, san'at arboblardan Sayyid Hasan Ardasher, Pahlavon Muhammad kabilar otalik qildilar. Sabzavorlik olim va shoir Darvesh Mansurdan aruz bo'yicha ta'lim oldi.

Navoiy 1460-yillarning ikkinchi yarmida Samarqandda yashadi. Temurbek poytaxt qilgan bu ko'hna shahar uning hayotida o'chmas iz qoldirdi. Bu yerda o'z davrining yetuk olimlaridan, xususan, shu kungacha asarlari Islom olamida mo'tabar sanalib kelayotgan Fazlulloh Abulays Samarqandiydek allomadan saboq oldi. Keyinchalik bu shaharni o'z asarlarida «firdavsmonand» (jannatmisol) deb ta'rif etdi. Bu yerda shoir sifatida juda katta shuhrat topa bordi. Bir devonga yetib ortadigan asarlari bo'lishiga qaramay, kamtarlik tufayli bo'lsa kerak, o'zi tartib bermaganligi uchun 1465-1466-yillarda uning muxlislari she'rlarini to'plab, «Devon» tuzdilar. Bu kitob bugungi kunda shartli ravishda «Ikki devon» deb nomlanadi.

Davlat ishlari bilan bir qatorda o'zining sevimli mashg'uloti

SO'Z MULKINING SULTONI

— badiiy ijodni ham to'xtatmadi. 1472-1476-yillarda «Badoe ul-bidoya» («Badiilik ibtidosi»), 1476-1483-yillarda «Navodir un-nihoya» («Tuganmas nodirliklar») nomlari bilan ikki devon tuzdi.

1483-yilda turkiy tilda birinchi bo'lib «Xamsa» yozishga kirishdi va misli ko'rilmagan qisqa muddat — ikki yilda besh yirik dostonidan iborat asarni yozib tugatdi. Ilm va ijod ahli bu voqeani zo'r shodliklar bilan qarshi oldi. Abdurahmon Jomiy Navoiy «Xamsa»siga yuksak baho berdi. Husayn Boyqaro buyuk shoirmi o'zining oq otiga mindirib, unga jilovdorlik qilib, Hirot ko'chalarini aylantirdi. Bu insoniyat tarixida kamdan-kam uchraydigan hodisa edi: qudratli davlatning shavkatli podshohi bir shoirga jilovdorlik qilsa. Mazkur hodisa ayni paytda Husayn Boyqaroning ma'nan yuksak, ma'rifatli va haqiqatpesha hukmdor bo'lganligining dalilidir. Navoiy «Hayrat ul-abror» dostonida bejiz uni Shoh G'oziy deya ulug'lamagan edi.

Navoiy fanning bir necha sohalarida qalam tebratib, zabardast olim ekanligini ham isbot etdi. O'tmish mavzusida «Tarixi mulki Ajam» («Ajam, ya'ni arab bo'lmagan mamlakatlar tarixi»), «Tarixi anbiyo va hukamo» («Payg'ambarlar va donishmandlar tarixi») asarlarini yozgan. Turkiy adabiyotshunoslikda ham uning alohida o'rni bor. Aruzga doir «Mezon ul-avzon» («Vaznlr o'lchovi»), tazkirachilikka oid «Majolis un-nafois» («Nafis majlislar») kabi asarlar yaratdi. Bular o'zbek (turk) tilida shu sohalaridagi birinchi asarlar edi. Buyuk shoir tilshunoslik bilan ham qiziqdi. Lug'atshunoslikka oid «Sab'atu abhur» («Yeti dengiz») nomli kitob yozdi. Ayniqsa, «Muhokamat ul-lug'atayn» («Ikki til muhokamasi») asarida turk (o'zbek) va (fors) tillarini solishtirib, o'z ona tilining tuganmas imkoniyatlarini ilmiy asoslab berdi.


Shuningdek, fors tilini mukammal bilgan va unda ham barakali ijod qilgan shoir bu tilda yozgan she'rlarini to'plab «Devoni Foniy»ni tuzdi.

Buyuk adib umrining oxiriga qadar ilm-u ijod bilan qizg'in va samarali shug'ullandi. Sharqda o'tgan mashhur shayxlar, so'fiylar hayoti haqida ma'lumot beruvchi «Nasoyim ul-muhabbat» («Muhabbat shabadalari») asarini yozib tugatdi. So'ng umr bo'yi xayolini band etgan «Lison ut-tayr»ni qog'ozga tushirdi. Boshqalar bilan olib borgan yozishmalari — xatlarini to'plab «Munshaot» («Xatlar») tuzdi. 1500-yilda buyuk mutafakkirning yaxshilik va yomonlik haqidagi qarashlarini o'zida ifodalagan «Mahbub ul-qulub» («Ko'ngillarning sevgani») asari maydonga keldi. Bu buyuk adibning so'nggi asari edi.

Buyuk davlat arbobi, so'z mulkining sultoni Mir Alisher Navoiy ijodi bugungi kunda dunyo miqyosida katta qiziqish va e'tirof bilan o'rganilmoqda. Asarlaridagi bosh g'oya asrlar davomida o'z mavqeyini yo'qotmay kelmoqda. Alisher Navoiy she'riyati, uning o'lmas asarlari doimo barhayotdir.

Nigora HAKIMOVA,

TTA akademik litseyi Yoshlar masalasi ma'naviy ma'rifiy ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari



Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 541-yilligi

O'tmishda olimlar, fozillar faqat fan va ilmning bir jabhasi bilan band bo'libgina qolmasdan, keng qamrovli tadqiqiy izlanishlar o'tkazganlar.

Mirzo Ulug'bek, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Farobiy aynan ana shunday qomusiy ilmlar sohibi bo'lgan. Buyuk ajdodimiz Bobur Mirzo shoh bo'lishiga qaramasdan ilmning bir qancha jabhalari bilan mufassal shug'ullangan.

Bobur Mirzo yaratgan harflar majmuasi –“Hatti Boburiy” ancha yillar mobaynida urf bo'lib kelgan arab harflari bilan

saqlanib kelinmoqda. Bunday ziddiyatli misollar yetarlicha. Vaholanki, bugungi kunda milliy tarixchiligimiz shaxsan davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev tomonidan nazoratga olinganligi, Prezidentimizning shaxsan ko'rsatmasi bilan “O'zbekiston tarixi” telekanalining ochilishi, Turon Fanlar Akademiyasi, shaxsan akademik Haydarbek Bobobekov tomonidan tariximizga oid ko'plab anjumanlar o'tkazilib, ilmiy maqolalar chop etilishi o'tmishimizga xolisona baho berish uchun omil bo'lib xizmat qilmoqda. Yaqinda tavallud kuni nishonlanadigan Mirzo Boburning “Boburnoma” asari ham “Qutadg'u bilig”, “Devoni lug'otit-turk”, Narshaxiyning “Samarqand tarixi”, “Farg'ona tarixi”, “Buxoro tarixi” kabi asarlari, Sadridin Ayniyning “Qullar”, “Doxunda”, “Buxoro jallodlari” tarixiy romanlari kabi o'z zamonasini eng xolisona va mukammal yoritgan qimmatli tarixiy manba hisoblanadi. “Boburnoma”da Mirzo Bobur o'zining shajarasi, padari Umarshayx Mirzo, saroy hayoti, notinch kechgan bolaligi, Andijon, Toshkent, Samarqand hukmdorlari, o'sha davrda qonli muhit, hokimiyat uchun bemisl janglar mukammal va chiroyli til bilan yoritilgan. Eng muhimi har bir muammoga xolislik va rostgo'ylik bilan yondoshilgan. Mirzo Bobur halim inson, dilbar shoir va haqqo'y hukmdor bo'lganligi bois hatto o'z muxolifi, hofizul Qur'on, shoir va hukmdor Muhammad Shayboniyxonga oid ma'lumotlarni ham haqqoniy bergan, o'rinsiz qoralamagan. Vaholanki, keyinchalik Mirkarim Osim va Pirmqul Qodirovlar buyuk Shayboniyxonni mutlaqo qoralab “Jayhun ustida bulutlar”, “Yulduzli tunlar” asarlarida ko'plab noqislik va noxolislikka yo'l qo'yg'alar. Shuningdek, Mirzo

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR – QOMUSIY OLIM

bir qatorda muomalada bo'lgan va agar bugungi kungacha ommalashib kelganida biz hozirgidek lotin imlosiga o'tib, arosatda qolmagan bo'lar edik. Chunki Bobur mirzo muomalaga kiritgan hatti Boburiy yozilishi, o'qilishi juda oson, unli va undosh tovushlarni, harflar birikmasi-diftonglarni anglatishda beqiyos ahamiyat kasb etgan hamda uzoq yillar Afg'oniston, Hindistonda urf bo'lgan.

Milliy tariximizni bizgacha yetkazib kelgan tarixiy asarlar unchalik ko'p emas, borlarining ham kattagina qismi hukmdorlar mayli hamda zamona zayliga qarab o'zgartirilgan, bir qismi yo'qotilgan. Siyosatga qarab tariximizning ko'pgina qismi soxtalashtirilgan. Birgina misol keltiramiz: Valentin Yan “Chingizxon”, “So'nggi dengizgacha”, “Botuxon” nomli trilogiyasini boshdan oxiri Chingizxonni qoralashga qaratilgan bo'lib, tarixiy dalillar soxtalashtirilgan. Unda bitilishicha Chingizxon buyrug'iga ko'ra barcha kitoblar yoqilgan, Jayhun kitoblar oqzilganidan ko'prik bo'lib, kitoblar ustidan otlar yurib o'tgan, deb mubolag'a qilingan. Filolog olim-professor Berdiy Berdaqov ma'lumotiga ko'ra, Chingizxon yurtimizdan barcha kitoblarni avaylab kigizga o'rab, Mo'g'ulistonga olib ketgan bo'lib, bugungi kunda Ulan Bator kutubxonalarida bobokalonlarimiz qalamiga mansub million nusxa kitoblar

Bobur yurtimizdan Bobotog' orqali dastlab Afg'onistonga, keyin Hindistonga hijrat qilganligi, hijrat taassurotlari, Hindistonda, Panipatda kechgan qonli urushlar va Bobur sulolasi uchun ikkinchi vatanga aylanib qolgan mazkur yurt, fuqarolar hayoti haqida qimmatli ma'lumotlarni o'zida jamlagan.

Bobur Mirzo forschadan turkiy tilga o'g'irgan, aslida Xo'ja Ahror Valiy qalamiga mansub “Risolayi volidiyya” islom ruknlariga asoslangan, ta'lim tarbiya borasidagi eng mukammal asarlardan biri hisoblanadi.


Xulosa qilib aytganda adolatli hukmdor, dilbar shoir, zakii mutafakkir Mirzo Boburning islomga, tarixga, filologiyaga bag'ishlangan asarlari yurtimiz, bobokalonlarimiz tarixiga oid eng haqqoniy va eng mukammal asarlari hisoblanib, ularni maktab, oliygohlar dasturiga kiritish yoshlarimizning ongida ma'naviy bo'shliq paydo bo'lishining oldini oladi.

Alijon FAQIROV,
Yevropa Tabiiy fanlar akademiyasi akademigi,
Sog'liqni saqlash a'lochisi,
Qutbiddin NIZOMOV,
Sog'liqni saqlash a'lochisi, Turon Xalq yozuvchisi



TIBBIY TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA INNOVATSION G'UYALARNING O'RNI

Ta'lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, uni zamon talablari darajasiga ko'tarish, milliy kadrlar tayyorlashning yangi tizimini barpo etish, barkamol, salohiyatli avlodni tarbiyalash hozirgi kunda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishidir.



Oliy o'quv yurtlarining asosiy vazifasi bu – jamiyatga yuqori malakali mutaxassislarini tayyorlash hisoblanadi. Demak, bo'lg'usi mutaxassis o'zi tanlagan mutaxassislikni egallashi uchun o'qish jarayonida o'quv jarayonini o'zlashtirishning turli bosqichlaridan o'tadi. Bu bosqichlarning qaysi bosqichdalgidan qat'iy nazar, talaba nazariy bilimlarini amaliy ko'nikmalar bilan uyg'unlashtirish tufayligina ko'zlagan maqsadiga erishadi. Bugungi kunda yetuk kadrlar tayyorlash vazifasi ta'lim muassasalari zimmasiga yuksak ma'suliyatni yuklatilganligi davlatimiz hamda davrning asosiy talablaridan biri.

Shu maqsadda Toshkent tibbiyot akademiyasida "Oliy tibbiy ta'lim sifatini oshirishda erishilgan yutuqlar va rivojlantirish istiqbollari" mavzusida navbatdagi XIV xalqaro o'quv-uslubiy anjuman o'tkazildi. Anjumanni Toshkent tibbiyot akademiyasi o'quv ishlari bo'yicha prorektori, professor Sh.Boymuradov kirish so'zi bilan ochib, ishtirokchilarni anjuman dasturi hamda kun tartibida ko'riladigan asosiy masalalar bilan tanishtirdi. Sh.Boymuradov shuningdek, o'z so'zida bugungi kunda mustaqil o'z taraqqiyot yo'lidan borayotgan mamlakatimizning uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish, uni yangi sifat bosqichiga ko'tarish, unga ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish, keng ko'lamda ta'lim samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligini alohida ta'kidladi.

So'ngra "Tibbiyot fanini o'qitishda sumulyatsion ta'limning ahamiyati", AQSH Florida Universiteti professori Sabrina Chovdri "AQSh oliy tibbiy ta'lim tizimi", Pokiston Abbottabad xalqaro tibbiyot maktabi, professori Muhammad Zubair Rashid "Pokiston oliy tibbiy ta'lim tizimidagi istiqbollari", Koreya Respublikasi Inha Universiteti, neyroxirurgiya kafedrasini mudiri, professor Park Hyeonseon "Oliy tibbiyot maktablarida tibbiy informatika fanining dolzarbligi" (onlayn ma'ruza) mavzularida qiziqarli ma'ruzalar qilishdi. Ma'ruzachilar o'z chiqishlarida tibbiy ta'limda xorijiy mamlakatlar oliy tibbiy ta'limining o'ziga xos jihatlari, tibbiy ta'limning sifatini oshirishda OTMlar o'rtasidagi aloqalarning o'rni, o'qitishda innovatsiya va axborot texnologiyalarini qo'llash, innovatsion texnologiyalarning kasbiy kompetentlikni takomillashtirishdagi o'rni, amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirishda simulyatsion markaz ahamiyati kabi dolzarb masalalarni tahlil qilish bilan bir qatorda yechimini kutayotgan ko'plab muammolarga ham to'xtalishdi. Anjuman qatnashchilarida ayniqsa tibbiy informatikaning roli bo'yicha onlayn ma'ruza katta qiziqish uyg'otdi.


Kunning ikkinchi yarmida anjuman ishtirokchilari Akademiyaning bosh o'quv binosi ma'ruzalar zallarida 6ta: menejment, tibbiy-biologiya, tibbiy biomuhandislik, oliy ma'lumotli hamshira va fundamental fanlar, tibbiy-profilaktik, ijtimoiy-gumanitar fanlar, terapevtik, jarrohlik, professional ta'lim muassasalari yo'nalishlari seksiyalari bloklariga bo'lingan holda 40 ta: tibbiyot yo'nalishi oliy ta'limi muammolari, talabalarni yuqori saviyada o'qitish usullari, o'quv jarayonining sifatini oshirishda innovatsion texnologiyalarning roli, tibbiy ta'limning sifatini oshirishda mahorat darslari ahamiyati, ikki diplom (double degree) modeli bo'yicha o'qitish tizimining istiqbollari va muammolari, kredit tizimi, uning o'ziga xos xususiyatlari, talabalar bilimni baholashdagi o'rni, o'qitishda innovatsiya va axborot texnologiyalarini qo'llash, pedagogik texnologiyalarning samaradorligi, innovatsion texnologiyalarning kasbiy kompetentlikni takomillashtirishdagi o'rni, amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirishda simulyatsion markaz ahamiyati kabi qiziqarli mavzular bo'yicha ma'ruzalar, chiqishlar orqali tajriba almashishdi, o'zlarining istak-takliflari bilan o'rtoqlashishdi.

Shuning bilan birga ma'ruzachilar o'z chiqishlarida umumiy amaliyot shifokorini tayyorlashdagi akademiyada olib borilayotgan ishlarni tahlil qilish bilan bir qatorda yechimini kutayotgan: bitiruvchining kasbiy tayyorgarligi haqida, amaliy ko'nikmalarni egallash usullarini takomillashtirish, shaxslararo muloqot ko'nikmalarini egallash, talabalarni amaliy faoliyatga tayyorlash sifatini oshirish kabi dolzarb masalalar bo'yicha ham to'xtalishdi. Anjuman ishtirokchilari ko'rilgan masalalar yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligiga o'zlarining taklif-mulohazalarini havola etishdi va barcha masalalar yuzasidan tegishli rezolyutsiya loyihasini qabul qilishdi.

O'tkazilgan xalqaro o'quv-uslubiy anjuman o'zining dolzarbligi va amaliy jihatdan qimmatligi, foydali ekanligi bilan ishtirokchilarda muhim ahamiyat kasb etganini e'tirof etishdi.

Zero, professor I.Ya.Konfederatov aytganidek: "Talabani faqat bilish uchun o'qitish emas, balki asosiy – ishlashni bilish uchun ham o'qitish kerak. Shaksiz, ushbu ko'nikma o'qitishning asosiy maqsadi hisoblanadi, bilim esa bu yo'lda tashlangan qadamdir".

Shoira QODIROVA,
2-son fakultet va gospital terapiya,
nefrologiya va gemodializ kafedrasini katta o'qituvchisi



YANGI O'ZBEKISTON YOSHLARI – KELAJAK VA ISTIQBOL POYDEVORI

Mamlakatimizning kelajagi bo'lmish yoshlarni har tomonlama yetuk, bilimli, salohiyatli shaxs, komil inson sifatida tarbiyalash masalasiga o'ziga xos tarzda, zamonaviy usullar asosida yondashib kelinmoqda. Ularning barcha huquq va erkinliklari, imkoniyat va manfaatlarini himoya qilishda tashkiliy-huquqiy asoslar zamon bilan hamnafas takomillashib bormoqda.



Zero, yoshlarning bilim olish huquqini ta'limda ta'minlaganining o'zi O'zbekistonning bugun yoshlarga berayotgan ta'lim-tarbiya va ko'rsatilayotgan g'amxo'rlik, e'tiborning amaliy ifodasidir.

Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston xalqiga yo'llagan Yangiyil tabriklarida: "Inson qadrini ulug'lash, aholimiz manfaatlarini ta'minlash, buning uchun kuchli iqtisodiyot barpo etish bizning asosiy vazifamizdir", deya ta'kidlab, 2024-yilni – "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili" deb e'lon qildilar.

"Yangi yilda iqtisodiyotimizga xorijiy investitsiyalarni jalb etish, tadbirkorlik va xususiy mulk uchun keng imkoniyatlar yaratishni yanada kuchaytiramiz. Ilm-fan, innovatsiya, IT kabi sohalarni, "yashil" va raqamli texnologiyalarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratamiz", deya ta'kidladilar Yurtboshimiz.

Biznes iqtisodiy taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Butun dunyo mamlakatlari biznesni jadal va samarali rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirishga intilishi bejiz emas. Umuman olganda, katta tadbirkorlikka aynan kichik biznesni rivojlantirish orqali erishiladi.

Zotan, bu tarmoq o'zining iqtisodiyotimizdagi o'ta muhim va salmoqli hissasi bilan davlatimiz va jamiyatimiz taraqqiyotida tobora muhim o'rin egallamoqda. Yoshlar barcha davrlarda jamiyatning faol qatlami sifatida e'tirof etib kelingan. Sharq uyg'onish davrida ham, jadidlar faoliyatida ham, jamiyatning yangilanishida yoshlarning o'rni beqiyos bo'lgan. Ta'kidlash joizki mamlakatimizda eng katta e'tibor mustaqil fikrlaydigan, tashabbuskor, shijoatli yoshlarni tarbiyalashga qaratilgan. Yoshlarimizga ko'rsatiladigan e'tibor ertaga ulkan yutuq va natijalarga erishish imkonini ham beradi. Albatta yoshlarni qo'llab-quvvatlash yangi-yangi marralarni zabt etishga, ularning yurtimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo'shishga zamin yaratmoqda. Darhaqiqat, birgalikda amalga oshirilayotgan mehnatlar natijasi o'laroq, Yangi O'zbekistonni barpo etish orzusi asl haqiqatga aylanmoqda.

M.MIRPAYZIYEVA,
G'.ASALOV,

Allergologiya, klinik immunologiya va hamshiralik ishi
kafedrasida assistentlari

O'ZBEK OLIMLARI POMIDORDAN YANGI AVLOD COVID-19 VAKSINASINI YARATDI

O'zbek olimlari tomonidan genetik vektorlar va pomidor o'simligi asosida koronavirus infeksiyasiga qarshi birinchi marta pomidor o'simligidan to'g'ridan-to'g'ri iste'mol qilinadigan yangi avlod COVID-19 vaksinasi yaratildi.

Olimlar tomonidan koronavirusning S1 antigen oqsilini kodlovchi gen fragmenti maxsus vektorlarga joylashtirilib, pomidor hujayrasi genomiga kiritildi. Bu hujayralardan S1 antigeni oqsilini muntazam ishlab chiqaruvchi pomidor o'simligi olindi.

Bunday o'simliklardan olingan pomidor mevasida 0.77 mkg/gr miqdorida turg'un S1 antigen oqsili sintez bo'lishi ko'rsatib berildi va TOMAVAC vaksinasi sifatida tanlab olindi.

Yaratilgan TOMAVAC vaksinasi sinovlari sichqonlar va ko'ngilli insonlar qon zardobida (IgG) va ichakda yuqori miqdordalarda neytrallovchi antitanachalar

(IgA) hosil bo'lishini isbotladi.

Bunda tajriba sichqonlarida va ko'ngillilarda salbiy nojo'ya ta'sirlar kuzatilmadi.

Ushbu tadqiqot TOMAVACni ikki bosqichli (ichak shilliq pardasi va qonda) himoyani ta'minlovchi xavfsiz vaktsinaligini ko'rsatdi va u birinchi to'g'ridan-to'g'ri iste'mol qilinadigan COVID-19 vaksinasi sifatida ilmiy hamjamiyatga taqdim etildi.

Muhimi, yaratilgan vektor tizimi va tajriba asosida, zarur hollarda, mamlakatimizda turli infeksiyalarga qarshi vaktsinalarni qisqa muddatlarda yaratish va joriy etish imkoniyati va yangi avlod



mutaxassislari shakllantirildi.

Vaksina ustidagi tadqiqotlar xorijning nufuzli "Frontiers in Nutritional Immunology" (IF=5.0) jurnalida nashr qilinib, sichqonlarda hamda ko'ngilli insonlarda o'tkazilgan birinchi faza immunogenlik va bioxavfsizlik sinovlari natijasi e'lon qilindi.



DEONTOLOGIYA SABOQLARI

Muhtaram gazetxon do'stlar, qadrli ustozlar va talabachilar!

"Tibbiyotnoma" tahrir hay'ati joriy yilning ilk birinchi sonidan boshlab "Deontologiya saboqlari" rukni ostida maqolalar berib borishga qaror qildik. "Deontologiya fani" shu kunning eng dolzarb muammolarini hal etishda dasturulamal bo'lib xizmat qildirdi.

Lekin ming afsuski bu fanni soatlari mutloq qisqarib,

yo'q bo'lib ketmoqda. Vaholanki bo'lg'usi shifokorlar uchun "Deontologiya fani"ni bilish juda zarurdir. Hozircha gazetamiz sahifalaridan o'qib-o'rganib turaylikchi, ajab emas ushbu zaruriy bo'lgan "Deontologiya fani" uchun soatlar ajratilsa, nur ustiga a'lo nur bo'lur edi.

Bu haqida sizning qimmatli fikrlaringizni kutib qolamiz.

"Tibbiyotnoma" tahrir hay'ati

So'nggi yillarda tib xodimlariga nisbatan tajovuz, zo'ravonlik, haqorat ko'paygandan-ko'paydi. Ommaviy axborot vositalari, internet tarmoqlari, teleradiokompaniya va qolaversa mahalla kampirlaridan ham navbatdagi tajovuz haqida bot-bot eshitadigan bo'ldik. O'zimizning uzoq yillik faoliyatimizda shaxsan bir necha karra guvoh ham bo'ldik. Bular haqida kitoblarimizda, televideniyelardagi chiqishlarimizda ko'p bora ta'kidlaganmiz.

Albatta, tajovuzlarda hamma vaqti ham mijozlar va ularning qon-qardoshlari aybdor bo'lavermaydi. Tib xodimlarimizning orasida takabbur, manman, kibru havoli, manfaatparast, muomala madaniyati va muloqot san'atidan bebahra, samimiyat va xolislikdan yiroq shaxslar yetarlicha.

Bundaylarning ko'pi bilan ishlab ko'rganmiz va ishlab kelmoqdamiz hanuzgacha. O'zgina mansab-manoqib, salgina ilm, jichchagina ilmiy daraja va unvonga erishgan, ayrim davo uslubini egallagan

tib xodimlarining kattagina foizi birdan o'zgaradi, qoladi, xuddi o'zini Gippokratning nevarasi, Ibn Sinoning shogirdi kabi sezib, dimog'ida gapirishni boshlaydi. Ustozimiz – O'zbekiston deontologiyasining yirik namoyondasi, professor Erkin Qosimov bir suhbatlarida: «Mansab va pul 90 foiz odamni o'zgartiradi, o'n foiz o'zgarmaydigan odamlar orasida siz bilan biz bormiz?», deb hazil aralash gapirgan edilar (Alloh rahmatiga olgan bo'lsin ustozni komilni!). Bemor bizning qabulimizga sevgi izhor qilish yoki latifa eshitish uchun emas, o'z dardig'ami, iztiroblari, muammolari va qayg'ulari bilan keladi. Uning ko'ziga dunyo tor bo'lib turibdi hozir. Bir og'iz so'z ortiqcha, bir luqma so'z kam. Bunday mahal uning dardiga malham, iztiroblariga taskin bo'ladigan darajada muomala qilish, kichikroq bemorni o'z farzandi yoxud nabirasidek, tengdoshlarini qondoshlardek, yoshi ulug'larni esa otanalarimizdek ko'rib, muomala qilishimiz lozim. Axir xalqimizda: «Shirin so'z bilan ilon inidan, yomon so'z bilan pichoq qinida chiqadi», deb bejiz aytilmagan. Biz uzoq yillar bemorlarning tib xodimlarini ustidan yozgan shikoyatlarini tekshirishlarda ishtirok etdik va bildikki, aksariyat shikoyatchilar tib xodimining pul ta'ma qilganligi yoki chala

davolaganligidan emas, aynan qo'pol va dag'al muomala qilganidan keyin shikoyat yozishga majbur bo'lganlar. Bunday shikoyatlar o'nlab tekshirganmiz, xulosa qilishimizdan avval...

Tibbiyotimizdagi ushbu bo'shliqni yo'qotish maqsadida ko'plab sa'y-harakatlar qildik, fanning turli jabhalarida tibbiy deontologiya, kasb etikasi, bioetika, shifokorning muomala madaniyati va muloqot san'atiga oid darslik va o'quv qo'llanmalari bitdik. Ammo, Akademiya maxsus komissiyasi bu borada o'quv soatlari kamligini bahona qilib, ularni nashr etish uchun ruxsat bermadi. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligiga oliygohlarda deontologiya kafedrasini ochish va bu borada adabiyotlar chop etishni ko'paytirish bo'yicha taklifimiz ham besamar ketdi. Sog'liqni saqlash vazirligidan qaytarilgan javob xatida: «Akademiya

ichki dunyosi, maqsad va vazifalarini anglash uchun. O'zlari istab kelayaptimi yoki ota-onasining qistovi bilan yoxud pulni zo'ri bilanmi? Bu amaliyot aksariyat xorij davlatlarida yo'lga qo'yilgan.

3. Shifokor va pedagoglarning malakasini oshirish kurslarida tibbiy psixologiya, kasb etikasi va tibbiy deontologiya, muomala madaniyati va muloqot san'atidan soatlarni ko'paytirish lozim. Bunday kurslarga latif va jozibali muomaladan, insonlar qalbiga yo'l topa olish san'atidan saboq berish uchun, mu'minlik va musulimligimizni eslatib turish uchun hazrat shayx Abdulaziz Mansur, professor Rahimboy Jumaniyozov, professor Zarifboy Ibodullayev kabi ahli ilmlar jalb etilishi lozim. Uch yil muqaddam malaka oshirish kursida bo'lib, mutlaqo keraksiz, murakkab va tib xodimi amaliyotida kam darajaga ega bo'lgan

fanlarni o'zlashtirib, stress bilan testlarini ham topshirishga majbur bo'lganmiz. Ketgan ikki oy vaqtimizga juda achingandik.

4. Tib xodimi o'zini

himoya qila oladigan darajada sog'lom, baquvvat bo'lishi, sport bilan astoydil va mintazam shug'ullanishlari lozim. Vaholanki, tib xodimlarining aksariyati rangi zahil, bilakchalari va boldirchalari ingichka, xuddi «o'rgimchak simptomi»dek qorni katta. Nos, sigaret chekadigani, spirtli ichimlik ichadigani qancha? Axir qarshingda o'lamsagina odamcha tursa, har qanday kimsa ham ikki-uch shapaloq urib, o'tgisi keladi-da, axir! Buyuk Gippokrat: «Vrach – izlechis Sam» – «Shifokor – avval o'zingni davolab olgin», deganlarida naqadar haq edi!

Xullasi kalom, bu borada mulohazalarimiz ko'p, barini bir maqolaga jo qilib bo'lmaydi. Ularning aksariyati tafsilotlari bilan «Bolalar xirurgiyasi va umumiy xirurgiyada deontologiya», «Bolalar va o'smirlar muammolari», «Allergologiya va dermatologiyada tibbiy deontologiya va kasb etikasi» o'quv qo'llanmalarimizda, «Asiyatning asrorlari», «Tibbiyot san'atkori», «Og'riqlar do'stim-dushmanmi?» kabi kitoblarimizga kiritilgan.

Alijon FAQIROV,
Sog'liqni saqlash a'lochisi, ta'lim fidoyisi,
Yevropa tabiiy fanlar akademiyasi
akademigi, oliy toifali shifokor,
Qutbiddin NIZOMOV,
Turon Xalq yuzvchisi, Turon FA
akademigi, Sog'liqni saqlash a'lochisi

TIBBIY DEONTOLOGIYA VA KASB ETIKASI NIMA UCHUN KERAK?

mustaqil bo'lganligi bois har qanday dars soatlarini berish huquqi o'zida», deyilgan edi.

Qariyb qirq yillik shifokorlik, tabiblik va ilmiy amaliyotimizdan, yozuvchilik tajribamizdan kelib chiqqan holda quyidagilarga e'tibor berishimiz lozim.

1. Tib xodimlarini tayyorlaydigan ilmgohlarida tibbiy deontologiya va kasb etikasidan, psixologiyadan, halimlik, mu'minlik, o'zaro hurmat, olijanoblik, samimiylik tarannum etilgan manbalardan soatlarni ko'paytirish lozim va lobud. Negaki, ularsiz yuksak madaniyatli, nozik muomalali, nafis muloqotli tib xodimlarini tayyorlab bo'lmaydi. Amaliyotimizdan yana bir misol keltiramiz: Besh yilcha burun bolalar xirurgiyasida muomala madaniyati va muloqot san'atidan darslik yozib, kafedra majlisidan muvaffaqiyatli o'tkazib, komissiyaga topshirgandik. Ammo, komissiya a'zolari tibbiy deontologiya va kasb etikasidan o'quv soatlari yo'qligini aytib, shunday qimmatli adabiyotni bekor qilgandi. Bunaqa misollar yetarlicha. Rahmatli ustozimiz, professor Erkin Yo'ldoshyevich Qosimov vafotlariga qadar tibbiy deontologiya va kasb etikasidan kafedra ochilishi uchun harakat qilib o'tdilar. Taassufki, bu narsa qog'ozlardagina qolib ketdi.

2. Tib ilmgohlariga qabul qilinadiganlarni ruhiy testlardan o'tkazish lozim. Ularning



EL ARDOG'IDAGI OLIMA



Kasblar orasida shifokorlik alohida qadrlanib kelinadi. Aynan shifokor, tibbiyot sohasi xodimi uchun insonlar hayotini saqlab qolish, dardiga malham bo'lishdan ortiq baxt yo'qdir.

Mamlakatimiz ajoyib shifokorlar, tibbiyot sohasi rivojiga munosib hissa qo'shayotganlarga boy hisoblanadi. Ularning ko'pchiligini nomi tibbiyot tarixiga kirgan, ular o'z burchi, o'z kasbi, o'z Vatanga sadoqatli xizmat qilish namunasi hisoblanadi. Ana shundaylardan biri ayol, ona, olim va mehridaryo ustoz, O'zbekiston revmatologlar maktabining asoschilaridan biri, umrini inson salomatligini himoya qilishga va ilm-fanga bag'ishlagan Karabayeva Raxilya Abzalovnaning umr yo'llarini oqq ko'chirishga harakat qildik.

El-yurt salomatligi, tibbiyot ravnaqi yo'lida fidoyilik ko'rsatayotgan ustozimizning hayot yo'li hamisha yoshlar uchun ibrat maktabidir, desak mubolag'a emas.

Tibbiyot fanlari doktori, professor, mehnat faxriysi, O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimining a'lochisi Raxilya Karabayeva 1928-yil 19 dekabrda tug'ilgan. 1951-yilda Toshkent Davlat tibbiyot institutini tamomlab, "Glav. Tashkentstroy" kasalxonasida shifokor bo'lib ishlagan. Mehribon ustoz Moskvadagi aspiranturaga o'qishga kirdi. Yillar o'tib aspiranturani tugatgandan so'ng Moskvada ichki kasalliklar kafedrasida assistent bo'lib professor Melik Karamyan rahbarligida 1955-yilda nomzodlik, 1972-yilda Tibbiyot fanlari akademiyasining vitse-prezidenti, akademik Anatoliy Inokentiyevich Nesterov rahbarligida doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi. Himoyadan keyin Toshkentga kelib, 16-shahar kasalxonasida professor R.A.Kasenovich kafedrasida ish boshladi. So'ngra 1980-yildan 2-tibbiyot fakulteti ichki kasalliklar propedevtikasi kafedrasiga mudirlik qildi.

Tajribali pedagog va ustoz,

respublikamiz sog'liqni saqlash tizimida o'z yo'nalishi bo'yicha 100 ga yaqin ilmiy ishlar muallifidir. Ilmiy tadqiqotlar revmatologiya masalalariga bag'ishlangan. Uning rahbarligida Fan va texnika davlat qo'mitasi va sobiq Ittifoq tibbiyot fanlari akademiyasining revmatologiya instituti topshirig'iga asosan "Revmatizmning tarqalishini va turli atrof-muhit omillarining ta'sirini o'rganish" dolzarb mavzuida ish olib borildi. O'zbekiston Respublikasi bosh revmatologi tashabbusi bilan 1986-yildan boshlab har yili revmatologik kasalliklarni tashxislash, davolash, oldini olish va tibbiy ko'rikdan o'tkazishning eng dolzarb masalalariga bag'ishlangan seminar-yig'ilish va konferensiyalar o'tkazib kelingan. Sobiq Ittifoq tibbiyot fanlari akademiyasi revmatologiya instituti direktori, akademik V.A.Nasonova boshchiligida shu soha yo'nalishida Toshkent shahrida ilmiy-amaliy konferensiyalar o'tkazilar edi. Va barcha ittifoq respublikalaridan revmatolog olimlar, yetakchi professorlari ishtirok etardi. Bu davrda olim revmatologiyaga oid 100 dan ortiq asarini nashr ettirdi, talabalar uchun ichki kasalliklar propedevtikasi bo'yicha o'zbek tilida o'quv qo'llanma va 1 ta monografiya nashr ettirdi, o'nlab yuqori malakali revmatolog mutaxassislar tayyorladi. Uning rahbarligida Bangladeshdan kelgan JSST aspiranti revmatologiya bo'yicha nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi.

Ustozning fan sohasiga qo'shgan hissasi, shogirdlar tayyorlashdagi qimmatli o'g'itlari tahsinga sazovor. Kafedra xodimlarining tinimsiz izlanishi, tibbiyot sohasiga qo'shgan hissasi natijasida kafedrada o'quv-uslubiy ishlar sezilarli darajada yaxshilandi. Ular ichki kasalliklar propedevtikasi bo'yicha amaliy mashg'ulotlar uchun o'quv-uslubiy qo'llanmalarni qayta tuzdilar. Shu bilan birga, rahbariyat tomonidan taklif etilgan o'quv-uslubiy qo'llanmalarni tuzishning yangi sxemasiga amal qilindi. Bundan tashqari, har bir amaliy mashg'ulot uchun oriyentirlovchi xaritalar tuzildilar. Unga ko'ra talabalar uyda darslarga tayyorgarlik ko'rishardi. Bu izlanishlar esa talabalarning mustaqil ta'lim sifatini sezilarli darajada yaxshilashga xizmat qilardi.

Ustoz uzoq yillar rahbarlik lavozimlarida faoliyat olib borib, soha rivojiga munosib hissa qo'shganlar. Kafedra xodimlari va tibbiyot ilm-fani fidoyisi professor R.Karabayeva rahbarligida talabalar uchun bir qator o'quv-uslubiy qo'llanmalar va darsliklar chop ettirishgan.

Olima minglab bemorlarning xastaliklardan xalos bo'lishi yo'lida ilmiy izlanishlar olib bordi, sohada bir qator ko'zga ko'rinarli yangiliklar yaratdi.

Soha rivojiga hissa qo'shishni diliga jo

qilgan ustoz 1985 yildan boshlab kafedra S-O06 revmatologiya bo'yicha Butunittifoq dasturini ishlab chiqishda ishtirok etgan. Fan va texnika davlat qo'mitasi topshirig'iga binoan ushbu dasturning bir qismi bo'lgan kengaytirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan. Ba'zi revmatik kasalliklarda (revmatizm, revmatoid artrit, tizimli skleroderma, tizimli qizil yuguruk) immunitet va endokrin tizimlarning o'zaro bog'liqligi va ularning ishini tuzatish. Bu mavzuni ishlab chiqish Toshkent davlat tibbiyot institutining rentgen va radiologiya kafedrasida va sobiq Ittifoq FA Immunologiya institutining Toshkentdagi filiali bilan hamkorlikda olib borilgan.

Raxilya Abzalovna xonadonlarini shifokorlar xonadoni desak aslo yanglishmaymiz. Boisi ustozning turmush o'rtloqlari Malik Qosimovich ko'p yillar davomida eski ToshMi hududidagi ichki kasalliklar (terapiya) bo'limida bo'lim mudiri bo'lib ishlaganlar va O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan shifokor unvoniga sazovor bo'lganlar.

Ustozning qizlari Gulmira Malikovna tibbiyot fanlari nomzodi bo'lib ko'p yillar davomida travmatologiya institutida shifokor terapevt bo'lib ishlagan.

Ustozning kichik qizlari Elmira Malikovna ko'p yillar davomida Moskva shahrida ona kasbi shifokor revmatolog bo'lib ishlagan.

Ustozning nabira va abiralari ham bu an'anani davom ettirmoqdalar.

Kuni kecha muhtarama Ustozimiz tibbiyot fanlari doktori, professor, mehnat faxriysi, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash tizimining a'lochisi Karabayeva Raxilya Abzalovna muborak 95 yoshni qarshiladilar.

Fursatdan foydalanib, biz shogirdlar muhtarama ustozimizni bu qutlug' sana tavallud ayyomlari bilan yana bir bor muborakbod etamiz.

Tolibi ilmlarga va bemorlarga mehr ko'rsatib, o'zi tanlagan ustozlik va shifokorlik kasbini ulug'lab, izzat-hurmat topgan, ikki qizning mehribon onasi, o'nlab nabira-abiralarning suyuqli buvijonisi Raxilya Karabayevaga dil izhorlarimizni muhtasar qilar ekanmiz, u kishiga uzoq umr, mustahkam sog'liq, farzandlari, nevaralari baxtini va kamolini yana uzoq yillar ko'rib yurishlarini Yaratgandan so'rab qolamiz.

Aziz Ustozimiz sha'nilariga bildiriladigan tilaklarimiz hali bisyor. Nasib etsa bu izhorlarimizni Raxilya Onamizni yuz bilan yuzlashganlarida albatta aytamiz.

Ma'ruf KARIMOV,
tibbiyot fanlari doktori, professor,
kafedra mudiri,
Xomid MARUFXONOV,
tibbiyot fanlari doktori, dotsent,
Maviuda AZIMOVA,
tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent



TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI QUIYIDAGI LAVOZIMLARGA TANLOV E'LON QILADI (2024-yil yanvar)

№	Kafedra nomi	Lavozim, shtat birligi
1-son davolash fakulteti		
1.	Nevrologiya va tibbiy psixologiya	dotsent – 0,25
2.	Nevrologiya va tibbiy psixologiya	assistent – 1,0
3.	Klinik modellashtirish	assistent – 1,0
Malaka oshirish fakulteti		
1.	1-son Fakultet va gospital xirurgiya	assistent – 1,0
2-son davolash fakulteti		
1.	Anesteziologiya va reanimatologiya	katta o'qituvchi – 1,0
2.	Anesteziologiya va reanimatologiya	mudir – 1,0
3.	Anesteziologiya va reanimatologiya	assistent – 1,0
4.	Sud tibbiyoti va tibbiyot huquqi	assistent – 1,0
5.	Dermatovenerologiya va kosmetologiya	mudir soatbay
Pediatrya, stomatologiya, xalq tabobati va tibbiy pedagogika fakulteti		
1.	Pedagogika, psixologiya va tillar	o'qituvchi – 1,0
2.	Reabilitologiya, xalq tabobati va jismoniy tarbiya	assistent – 1,0
3.	Bolalar kasalliklari propedevtikasi	dotsent – 1,0
Tibbiy profilaktika va jamoat salomatligi fakulteti		
1.	Gistologiya va tibbiy biologiya	mudir – 1,0
2.	Mikrobiologiya, virusologiya va immunologiya	mudir – 1,0
3.	Epidemiologiya	mudir – 1,0
Farmatsiya, menejment, tibbiy biologiya, biotibbiyot muhandisligi va oliy ma'lumotli hamshira fakulteti		
1.	Gematologiya, transfuziologiya va laboratoriya ishi	mudir soatbay
2.	Allergologiya, klinik immunologiya va hamshiralik ishi	mudir soatbay

Hujjatlar tanlov e'lon qilingan kundan boshlab bir oy davomida Toshkent tibbiyot akademiyasining devonxona va arxiv bo'limida qabul qilinadi.

Manzil: Olmazor tumani, Farobiy ko'chasi, 2-uy.

MUASSIS:
TOSHKENT
TIBBIYOT
AKADEMIYASI

MUHARRIR
TURDIQUL
BOBOMURATOV

TAHRIR HAY'ATI:
Q.Nizomov (Bosh muharrir o'rinbosari),
O.Hazratov, A.Zohidiy, N.Hakimova,
L.Abdugodirova, M.Hasanova

Gazeta Pentium-IV
kompyuterida sahifalandi va Toshkent
Tibbiyot akademiyasi RISOGRAFida
400 nusxada chop etildi.
Manzilimiz:
Toshkent shahri, Farobiy
ko'chasi, 2-uy
Nashr uchun ma'sul
Q.Nizomov

Gazeta Toshkent Matbuot va axborot
boshqarmasida 2007-yil 15-yanvarda
02-0049 raqam bilan ro'yxatga olingan

Mualliflar fikri tahririyat nuqati nazaridan farqlanishi
mumkin. Maqolalardagi ma'lumotlar uchun
mualliflar javobgardir
Bepul tarqatiladi